



TIJORAT BANKLARINING AKSIYALAR EMISSIYASI TAHLILI

ANALYSIS OF THE ISSUANCE OF OF SHARES BY COMMERCIAL BANKS

**¹Bo'riyev Jamshid
Parda o'g'li**

*¹O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil
izlanuvchisi, PhD. ORCID: 0009-0009-7645-4934,
G-mail: burievjamshid102@gmail.com*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada tijorat banklarining aksiyalar emissiyasi faoliyati nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilingan. O'zsanoatqurilishbankning oddiy va imtiyozli aksiyalari emissiyasi, aksiyadorlar tarkibi o'zgarishi kabilarga e'tibor qaratilgan. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida xulosalar shakllantirilgan.

Eng. - This article examines the theoretical and practical aspects of the issuance of shares by commercial banks. Particular attention is paid to the issuance of ordinary and preferred shares of Uzsanoatqurilishbank, as well as changes in the composition of shareholders. Based on the conducted research, conclusions have been drawn.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ bank, aksiya, oddiy aksiya, imtiyozli aksiya, aksiyador, xususiyashtirish, ochiq va yopiq joylashtirish.

❖ bank, share, ordinary share, preferred share, shareholder, privatization, public and private placement.

Kirish.

Hozirgi globallashuv va moliya bozorlarining chuqur integratsiyalashuvi sharoitida bank kapitali barqarorligini ta'minlash masalasi jahon moliya tizimi uchun eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jahon amaliyotida tijorat banklari moliyaviy resurslarni jalb etishning turli usullaridan foydalanadi. Shular qatorida aksiyalar emissiyasi xususiy kapitalni shakllantirishning eng samarali instrumentlaridan biri sifatida keng qo'llanilmoqda. Xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi va rivojlangan Osiyo mamlakatlarida aksiyalar chiqarish bank kapitalini oshirish, investorlarni jalb qilish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Eng asosiy jihatlaridan biri shubhasiz yuqori investitsion jozibadorlik sharoitida har qanday aksiyadorlik jamiyati kabi tijorat banklari aksiyalarining ham

nominal qiymatdan bir necha barobar yuqori narxda joylashtirilishi natijasida qo'shilgan kapitalning oshib borishi va arzon kapitalga egalik qilishdir. Bunda moliyaviy resurs jalb qilish bo'yicha raqobatdagi ustunlik o'z-o'zidan butun faoliyat bo'yicha ustunlikka xizmat qiladi.

O'zbekistonda esa moliya bozorlarini rivojlantirish, bank tizimining barqarorligini ta'minlash hamda aholining investitsion faolligini kuchaytirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda keyingi yillarda banklarning ustav kapitalini oshirish, aksiyadorlik kapitalini oshirib borishda qo'shilgan kapitalni ham oshirish, "umumiy bank aktivlari tarkibida xususiy banklar ulushini 60 foizga yetkazish" [1], banklar aksiyalarini ommaviy joylashtirish masalalari ustuvor vazifalar qatorida qayd etilmoqda. Bunda tijorat banklarining ichki va tashqi

investitsiyalarni faol jalb qilishlarini kengaytirish alohida ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lsada aksariyat holatlarda qarz kapitali bilan chegaralanib qolmoqda, birorta ham tijorat banki aksiyalari ommaviy joylashtirishga hatto ichki bozorda ham chiqarilmagan. Tijorat banklari aksiyadorlik kapitalida davlat ishtiroki yuqoriligi sababli aksariyat davlat ishtirokidagi banklar aksiyalari nominal qiymatdan ham past sotilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklarining aksiyalar vositasidagi moliyaviy munosabatlari milliy va xorijiy tadqiqotchilarning doimiy diqqat-e'tiboridagi masalalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Aksiyadorlik tijorat banklari kapitallashtirishni oshirishga doir tadqiqotlar olib borgan I. Tursunov "milliy tijorat banklari aksiyalari muntazam kotirovkalari mavjud emasligi ularning investitsion jozibadorligini pasaytirmoqda va xususiylashtirish jarayonini o'tkazishda to'siq sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek bank kapitallashtirishni oshirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash hisobiga bank resurs bazasini kengaytirish imkonini bermayapti", deya ta'kidlaydi [4]. Xususiylashtirish va qo'shimcha aksiyalarni ochiq joylashtirish shubhasiz aksiyalarning ikkilamchi bozordagi oldi-sotdisiga bevosita bog'liq. Bu jihat tadqiqotchi ta'kidlagan davrdan keyin ham muammoligicha qolmoqda.

Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining rolini oshirishga doir tadqiqotlar olib borgan E. Nasirov tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorida sof raqobat muhitining mavjudligi tijorat banklarining mazkur bozorga ta'sirini ko'rsatishi alohida qayd etib o'tilgan. Shuningdek, respublikamiz tijorat banklariga xalqaro fond birjalari listingiga kirish va xorijiy valutadagi o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmaganligi alohida ta'kidlanadi [5]. Tadqiqotchi bu

fikrlarni 2006-yilda qayd etganligidan kelib chiqsak, o'tgan 20 yil davomida fond bozorida raqobat hamon mavjud emas. Davlat ishtirokidagi ayrim banklar xalqaro obligatsiyalari xalqaro fond bozorida listingdan o'tgan bo'lsada, depozitar tilxatlar vositasida aksiyalar xalqaro bozorga hamon chiqmagan. Qolaversa, milliy tijorat banklarining erkin muomaladagi tijorat banklari aksiyalari hajmi keskin pastligicha qolmoqda.

Tijorat banklarida dividend siyosatini takomillashtirishga doir tadqiqotlar olib borgan R. Kunarov "Tijorat banklaridagi davlat ulushini xususiylashtirishni samarali tashkil etish hamda investitsion jozibadorlikni oshirishga yo'naltirilgan holda dividend siyosatini amalga oshirish va aksiyalar daromadlilikini belgilash zarur. Mazkur choralarni qo'llash orqali tijorat banklarining investitsion jozibadorligini yuqori darajaga ko'tarish, davlat ishtirokidagi tijorat banklarining ulushini kamaytirish, tijorat banklarida samarali korporativ boshqaruvni joriy etish imkoniyatlari yuzaga keladi", deya ta'kidlaydi [6]. Mazkur jihatlarga yetarlicha e'tibor qaratilishi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi orqali iqtisodiyotni moliyalashtirishda ham raqobatni yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy taqqoslash, deduksiya, induksiya, analiz, sintez, taqqoslama tahlil, statistik tahlil, prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Aksiyalar emissiyasi tijorat banklari faoliyatining asosi ekanligidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda ham aksiyalar bozorida ular nisbatan faol hisoblanadi. Shu bo'yicha O'zsanoatqurilishbank ATB misolida tahlillarni ko'rib chiqamiz. O'zsanoatqurilishbank tomonidan 1998-yildan buyon o'tgan davr mobaynida 28 marta aksiyalar emissiya

qilingan. Bu emissiyalardagi asosiy jihatlarga to'xtalib o'tamiz (1-jadval).

1-jadval

O'zsanoatqurilishbank ATB aksiyalar emissiyasi tahlili [7]

Chiqarilish raqami, joylashtirish tartibi	Ro'yxatga olingan sana	Aksiya soni, ming dona		Nominal bahosi	Chiqarilish hajmi, mln. so'mda
		Oddiy	Imtiyozli		
1, ochiq	25.06.1998	1120	280	1500	2100
2, ochiq	19.03.1999	1280	320	1500	2400
3, ochiq	20.07.2000	1000	-	1500	1500
4, ochiq	11.01.2001	1800	200	1500	3000
5, ochiq	13.11.2002	400	400	1500	1200
6, ochiq	31.10.2005	800	-	1500	1200
7, ochiq	21.04.2006	4400	-	1500	6600
8, ochiq	01.03.2007	-	300	1500	450
9, ochiq	24.08.2007	4500	500	2000	10000
10, ochiq	28.12.2007	30000	-	2000	60000
11, yopiq	06.10.2008	32700	-	2000	65400
12, yopiq	17.05.2010	48000	2000	2360	118000
13, yopiq	20.08.2010	48000	2000	2475	123750
14, ochiq	28.11.2011	9800	-	2475	24255
15, yopiq	28.06.2012	57800	2000	2785	166543
16, yopiq va ochiq	02.08.2012	54578,1	-	2785	152000
17, yopiq	2014	112378,1	2000	2 917	333641
18, yopiq	02.09.2014	112378,1	2000	3252	371958
19, ochiq va yopiq	30.09.2014	100000	-	3252	325200
20, yopiq	31.12.2015	204365,135	2000	3382	697927
21, ochiq	05.03.2016	65000	-	3382	219830
22, yopiq	18.07.2017	36 376 994	356000	19	697927
23, yopiq	02.08.2017	1 430 556	14000	19	27447
24, yopiq	05.09.2017	33 144 579	-	19	629 747
25, yopiq	22.12.2017	5 090 685	-	19	96 723
26, yopiq	30.10.2018	15 789 474	-	19	300 000
27, yopiq	25.12.2018	21 963 818	-	19	417 313
28, yopiq	30.10.2019	129 755 678	-	19	2 456 358

Bevosita aksiyalar emissiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, birinchi va ikkinchi emissiyalarda bank 20 foizlik doirada imtiyozli aksiyalar joylashtirish imkoniyatidan maksimal foydalangan. Bunda birinchi emissiyaga qadar bank ustav kapitali 1 milliard so'mga teng bo'lgan va aksiyalariga 2578 ta yuridik hamda 8014 ta jismoniy shaxslar egalik qilishgan bo'lib, hech bir shaxsning ulushi 5 foizdan

oshmagan. Birinchi emissiyada 2,1 milliard so'mlik aksiyalar muomalaga chiqarilgan bo'lib, bunda taqsimlanmagan foydani dividendga yo'naltirish maqsadida 1000 so'mlik aksiya nominali 1500 so'mga oshirilgan va qo'shimcha ravishda yana 600 million so'mlik aksiya muomalaga chiqarilgan. Bunda yana bir alohida xususiyat

bu hech bir aksiyador ulushi 35 foizdan oshishi mumkin emasligi belgilab qo'yilganligidir.

Ikkinchi emissiyada ham 2,4 milliard so'mlik qo'shimcha aksiya ochiq joylashtirilgan. Aynan 2-emissiyaga qadar bank ustav kapitalida birgina O'zneftgazqazibchiqarish DAJ 10,5 foizlik ulushga ega bo'lgan. Qolgan 89,5 ulushga esa 2936 ta yuridik va 9404 jismoniy shaxslar egalik qilishgan.

Uchinchi emissiya e'lon qilinganda bank aksiyalariga 3845 ta yuridik va 13750 ta jismoniy shaxslar egalik qilishgan. Yirik aksiyador sifatida O'zneftgazqazibchiqarish DAJ ulushi 9,2 foizni tashkil etgan. Emissiya jarayonida 1,5 milliard so'mlik oddiy aksiya ochiq joylashtirilgan.

To'rtinchi aksiyalar emissiyasi e'lon qilingan vaqtda yirik aksiyador sifatida Neftgaztrast UK 6,9 foiz, O'zneftqaytaishlash DAJ 6,6 foiz, Buxoro NQIZ UK 6,0 foiz aksiyalarga egalik qilgan. Shuningdek, 3365 ta yuridik shaxs va 16928 ta jismoniy shaxs minoritar aksiyador hisoblangan.

Beshinchi aksiyalar emissiyasi e'lon qilingan 2002-yil noyabr oyida yirik aksiyadorlar O'zneftqaytaishlash DAJ 6,6 foiz, Neftgaztrast UK 6,3 foiz va Buxoro NQIZ UK 5,6 foiz aksiyalarga egalik qilgan. 3686 yuridik va 21411 jismoniy shaxslarning ulushi esa 81,5 foiz aksiyalarga egalik qilgan.

9-emissiya 2007-yil 11-mayda o'tkazilgan aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qabul qilingan bankning o'tgan yillardagi faoliyat natijalari bo'yicha taqsimlanmagan foydasini aksiya nominalini 1500 so'mdan 2000 so'mga oshirish orqali reinvestitsiya qilish to'g'risidagi qaror ijrosini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan va shu emissiya orqali aksiyalar qonunchilik talablari asosida elektron shaklga o'tkazilgan.

2008-yil 6-oktabrdagi o'n birinchi aksiyalar emissiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 13-avgustdagi PQ-944-sonli "O'zbekiston aksiyadorlik tijorat sanoat-qurilish bankining kapitallashtirish darajasini

yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan amalga oshirilgan. Qarorda "O'zsanoatqurilishbank"ning aksiyadorlari tomonidan umumiy qiymati 65,4 mlrd. so'm miqdoridagi qo'shimcha aksiyalarni emissiya qilish hamda bankning ustav kapitalini 100 mlrd. so'mga yetkazish belgilangan va bunda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga - 35 mlrd. so'm miqdorida, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga - 26 mlrd. so'm miqdorida, belgilangan tartibda qimmatli qog'ozlar bozori orqali, shu jumladan, bank aksiyadorlari - sanoatning bazaviy tarmoqlari korxonalariga - 4,4 mlrd. so'm miqdorida bank aksiyalarini sotish to'g'risidagi taklif ma'qullangan edi [2]. Qaror ijrosi ta'minlanishi natijasida bank ustav kapitali 100 milliard so'mga yetkazildi va 11-emissiya natijasida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi 35 foiz ulushga, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi esa 26 foizlik ulushga egalik qila boshladi. Natijada emissiyaga qadar 17,4 foiz ulushga egalik qilgan "British Glass Group" MChJ QQ, 14,5 foiz aksiya egalik qilgan "Absolute Investments Trust" MChJ ulushi mos ravishda 6,0 foiz va 5 foizga qadar pasaydi.

Taqsimlanmagan foydani reinvestitsiyaga yo'naltirish hisobiga bank aksiyasi nominali 12-emissiyada 2360 so'mga, 13-emissiyada 2475 so'm, 15-emissiyada 2785 so'mga, 17-emissiyada 2917 so'mga, 18-emissiyada 3252 so'mga, 20-emissiyada 3382 so'mga oshirilgan.

2011-yil 28-noyabrdagi 14-emissiyada 24,255 milliard so'mlik, 2016-yil 5-martdagi 21-emissiyada esa 219,830 milliard so'mlik oddiy aksiya ochiq joylashtirilgan. 2012-yil 2-avgustdagi 16-emissiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-martdagi 83-sonli "O'zbekiston sanoat-qurilish banki" ochiq aksiyadorlik tijorat banki kapitallashtirishni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Unga

ko'ra 152 000 008 500,0 so'mlik qo'shimcha oddiy aksiyalar emissiya qilingan va quyidagicha joylashtirilgan:

❖ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga – 44,5 mlrd. so'mlik aksiya yopiq obuna orqali;

❖ O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga – 33,1 mlrd. so'mlik aksiya yopiq obuna orqali;

❖ «O'zbekneftgaz» MXK – 19,9 mlrd. so'mlik aksiya yopiq obuna orqali;

❖ «O'zbekenergo» DAK – 7,1 mlrd. so'mlik aksiya yopiq obuna orqali;

❖ «O'zkimyosanoat» DAK – 1,3 mlrd. so'mlik aksiya yopiq obuna orqali;

❖ boshqa investorlarga – 46,1 mlrd. so'mlik aksiya miqdorida ochiq obuna orqali.

2014-yil 30-sentabrdagi aksiyalarning 19-emissiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 23-maydagi 2179-sonli "O'zbekiston sanoat-qurilish bank" ochiq aksiyadorlik tijorat banki kapitallashtirishni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida bank aksiyadorlarining 2014-yil 13-iyundagi navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishi qarori asosida amalga oshirilgan.

Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga 100 million AQSh dollari, O'zbekneftgaz MXK korxonalariga 11,2 million AQSh dollari ekvivalentida, "O'zbekenergo" DAK korxonalariga 5,0 mln. AQSh dollari ekvivalentida, "O'zkimyosanoat" DAK korxonalariga 2,0 mln. AQSh dollari ekvivalentida yopiq obuna orqali joylashtirildi. Shuningdek, mazkur emissiya doirasidagi aksiyalarning 4,0 mln. AQSh dollari ekvivalentidagi qismi boshqa investorlarga aksiyalar oldi-sotdi shartnomalari ro'yxatga olingan sanadagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan AQSh dollarining so'mga nisbatan kurs qiymati asosida ochiq obuna orqali joylashtirilgan.

2017-yil 18-iyuldagi bank aksiyalarining 22-emissiyasi natijasida 3382 so'mlik aksiya nominalini 19 so'mga pasaytirish amalga oshirilgan, mazkur emissiya bo'yicha ustav kapitalida o'zgarish bo'lmagan.

Keyingi aksiyalar emissiyalari ham bank tomonidan to'liq yopiq joylashtirilgan. Ulardagi alohida jihatlaridan eng asosiysi bu asosan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ulushining muntazam ravishda oshib borganligidir (2-jadval).

2-jadval

O'zsanoatqurilishbank ATB tomonidan amalga oshirilgan oxirgi beshta aksiyalar emissiyasi [7]

Emissiya raqami, ro'yxatga olingan sana	Joylashtirish tartibi	Ulushi kiritilgan aksiyador	Kiritilgan ulush miqdori, mlrd. so'm
24, 05.09.2017	To'liq yopiq	O'zR Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	629,747
25, 22.12.2017	To'liq yopiq	O'zR Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	155
26, 30.10.2018	To'liq yopiq	O'zR Iqtisodiyot va moliya vazirligi	300
27, 25.12.2018	To'liq yopiq	O'zR Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	450
28, 18.10.2019	To'liq yopiq	O'zR Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	2527

Mazkur emissiyalar va davlat nomidan O'zsanoatqurilishbank ATBga ulush kiritish amaliyotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-fevraldagi PQ-2764-sonli, 2017-yil 16-iyundagi PQ-3066-sonli, 2018-yil 13-noyabrdagi PQ-4015-sonli, 2019-yil

9-oktabrdagi PQ-4487-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-sentabrdagi tegishli Farmoyishiga asosan amalga oshirilganligini ham shu o'rinda ta'kidlab o'tishimiz lozim.

3-jadval

O'zsanoatqurilishbank ATBda ustav kapitali dinamikasi [8]

<i>Ustav kapitaliga oshirilishiga asos, emissiya risolasi</i>	<i>Ustav kapitali miqdori</i>	<i>Aksiyaning nominal qiymati</i>
<i>Aksiyalar 15-emissiya risolasi</i>	166 543 000 000	2 785
<i>Aksiyalar 16-emissiya risolasi</i>	318 543 008 500	2 785
<i>Aksiyalar 17-emissiya risolasi</i>	333 640 917 700	2 917
<i>Aksiyalar 18-emissiya risolasi</i>	371 957 581 200	3 252
<i>Aksiyalar 19-emissiya risolasi</i>	671 099 419 020	3 252
<i>Aksiyalar 20-emissiya risolasi</i>	697 926 886 570	3 382
<i>Aksiyalar 23-emissiya risolasi</i>	725 373.449 525	19
<i>Aksiyalar 24-emissiya risolasi</i>	1 355 120 449 518	19
<i>Aksiyalar 25-emissiya risolasi</i>	1 451 843 469 952	19
<i>Aksiyalar 26-emissiya risolasi</i>	1 751 843 469 948	19
<i>Aksiyalar 27-emissiya risolasi</i>	2 169 156 019 947	19
<i>Aksiyalar 28-emissiya risolasi</i>	4 634 513 904 398	19

Ayni vaqtda O'zsanoatqurilishbank ATBning ustav kapitali 4 634,514 milliard so'mni tashkil qiladi. Bunda umumiy qiymati 4 627,484 milliard so'm bo'lgan nominal qiymati 19 so'mlik oddiy aksiyalar va umumiy qiymati 7,03 milliard so'm bo'lgan nominal qiymati 19 so'mlik imtiyozli aksiyalar mavjud.

Bank ustav kapitalida O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ulushi 82,09 foiz, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ulushi 13,4 foizni tashkil etib, ikkala yirik aksiyadorning davlat nomidan umumiy ulushi 95,49 foizni tashkil etmoqda. Vaholanki, 1998-yilda hech bir yirik aksiyadorning ulushi 5 foizdan oshmas edi.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya faoliyati nuqtai nazaridan O'zsanoatqurilishbank ATB ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasining

11,13 foiz, Toshkent Respublika fond birjasining 6,25 foiz, "Qurilishmashlizing" RILK AJ, "EL SIS-SAVDO" AJ, "UzMED-lizing" AJ va "Chilonzor buyum savdo kompleksi" AJlarning 5 foizdan ortiq aksiyalariga egalik qiladi.

Konversiya imkoniyati bilan korporativ obligatsiyalar joylashtirish, kredit liniyalari ochilishi orqali kapital bozoridan mablag' jalb qilish ham bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etadi. Bunda joylashtirilgan korporativ obligatsiyalar va jalb qilingan kredit liniyalari mablag'larini qaytarish vaqti kelganda oddiy aksiyalarga konversiyalanishi tartibi asosida kapital jalb qilish lozim bo'ladi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida berilgan taklif natijasida Sanoatqurilishbank ATB tomonidan qo'shimcha chiqariladigan oddiy aksiyalariga konvertatsiya qilish imkoniyati bilan kredit liniyalari ochilishi to'g'risida bitimlar amalga oshirilmoqda (3-jadval).

4-jadval

O'zsanoatqurilishbankning qo'shimcha chiqariladigan oddiy aksiyalariga konvertatsiya qilish imkoniyati bilan kredit liniyalari ochilishi to'g'risida bitimlar, AQSh dollarida [3]

<i>Nº</i>	<i>Xalqaro moliya institutlari</i>	<i>Qarz hajmi</i>
1	Xalqaro moliya korporatsiyasi	75 million
2	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki	50 million
3	Osiyo taraqqiyot banki	50 million

Bunda Xalqaro moliya korporatsiyasi 75 million AQSh dollari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki 50 million AQSh dollari va Osiyo taraqqiyot banki 50 million AQSh dollari jami 175 million AQSh dollari ekvivalentigacha hajmda har bir xalqaro moliya institutining istagiga ko'ra to'liq yoki ma'lum bir qismini O'zsanoatqurilishbank ATBning qo'shimcha emissiya qilinadigan oddiy aksiyalariga konvertatsiya qilish imkoniyatini taqdim etish orqali kredit liniyalari ochilishi bo'yicha bitimlar amalga oshiriladi. Natijada esa O'zsanoatqurilishbank ATB ustav kapitaliga xorijiy aksiyadorlar kirib kelishi natijasida davlat ulushi pasayishini kutish mumkin bo'ladi. Shu bilan birgalikda xalqaro tajriba va raqamlashtirishning jadallashuvini ham prognoz qilish mumkin. Bu jarayon oxir-oqibat 2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasini amalga oshirish nuqtai nazaridan O'zsanoatqurilishbankni xususiylashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaymiz.

Mazkur bitim bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vaziriga Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki bilan muzokaralar olib borish bo'yicha vakolat berilgan. Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki konvertatsiyalanuvchi kredit bitimlari amal qilish davri davomida O'zsanoatqurilishbank ustav kapitalidagi davlat ulushi kamida 50 foiz plyus bir dona aksiya miqdorida saqlash tartibi amal qiladi. Kredit liniyasi oddiy aksiyalarga konvertatsiya qilingach, xususiylashtirish amaliyotlari jadallashtiriladi.

O'zsanoatqurilishbankka ochilgan kredit liniyasi bo'yicha Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki oldidagi qarzdorlik yoki uning bir qismini O'zsanoatqurilishbank qo'shimcha emissiya qilingan oddiy aksiyalariga konvertatsiya qilish bo'yicha opsiyon chiqarish muhim, deb hisoblaymiz. Bunda opsiyon bitimi

Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi o'rtasida aksiyadorlik bitimlari tuzilishi maqsadga muvofiq. Shuni ham qayd etish lozimki, xususiylashtirish bilan bog'liq, aksiyalar muomalasi bilan bog'liq holatda istiqbolda konvertatsiyalanuvchi aksiyalarni yoki ularning bir qismini xalqaro moliya institutlari xohishiga ko'ra Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi qayta sotib olish bo'yicha ham oldindan bitim imzolab qo'yilishi bitimning amalga oshuvchanligini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar.

1. Agar qonunchilikda cheklovlar bo'lmasa, tijorat banklari fond bozorida emission faoliyat, investitsion faoliyat va vositachilik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin hamda shu orqali kapital tarkibini va aktiv operatsiyalar orqali daromadlar tarkibini diversifikatsiyalashi mumkin.

2. Tijorat banklari faoliyati asosini aksiyalar emissiyasi tashkil etadi. Chunki tijorat banklari faoliyatini boshlash asnosida ustav kapitalini shakllantirish talab etiladi. Ustav kapitali esa bevosita aksiya emissiya qilish va ta'sischilar o'rtasida joylashtirish hisobiga shakllantirilishini qayd etib o'tishimiz lozim.

3. Tijorat banklarining fond bozoridagi faoliyatining past sur'atda ekanligiga bir qator jihatlarni sabab sifatida keltirishimiz mumkin. Xususan, tijorat banklarining fond bozoridagi ishtirokini tashkil etadigan va rag'batlantiradigan tashkiliy-huquqiy asoslarning amaliyotda yetarlicha samarali ishlamasligi, mamlakatda inflyatsiya darajasining yuqoriligi, investitsion jozibadorlikning pastligi, aholining moliyaviy savodxonlik darajasining yetarlicha emasligi kabilar shular jumlasidandir.

4. O'zsanoatqurilishbank ATBning 1998–2007-yillardagi aksiyalar emissiyasi muntazam ochiqlikka asoslanganligi

investitsion jozibadorligini ham oshirgan. 1998-yilda hech bir yirik aksiyadorning ulushi 5 foizdan oshmas edi. 2008-yil boshida esa hech bir aksiyadorning ulushi 10 foizdan yuqori emasligi alohida ahamiyat kasb etgan. Amalda mazkur jihat sof korporativ boshqaruvni ta'minlaydi.

5. 2008-yildan boshlab O'zsanoatqurilishbank ATBga bank kapitallashuvini oshirish maqsadida muntazam davlat ulushining kiritilishi oxir-oqibat xususiy investorlar ulushini keskin kamaytirgan. Natijada bugun davlat ulushini qisqartirish murakkablik kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni; <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 13-avgustdagi PQ-944-sonli "O'zbekiston aksiyadorlik tijorat sanoat-qurilish bankining kapitallashtirish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zsanoatqurilishbank" aksiyadorlik tijorat bankini xalqaro moliya institutlari ishtirokida xususiylashtirish va transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 29-martdagi 161-sonli Qarori.
4. Турсунов И. Повышение капитализации акционерно-коммерческого банка: монография. – Ташкент: Инновационное развитие, 2020. – 120 с.
5. Nasirov E. Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining rolini oshirish masalalari. I.f.n. darajasini olish uchun diss. avtoref. – Toshkent, 2006. – 24 b.
6. Kunarov R. Tijorat banklarida dividend siyosatini takomillashtirish. PhD diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 65 b.
7. <https://uzpsb.uz/uz/for-investors/bank-qimmatli-qogozlari-emissiyasi/>
8. <https://uzpsb.uz/uz/for-investors/qimmatli-qogozlar-haqida-malumot/>